



INTERNET TARMOG'IDAN FOYDALANIB GIYOHVANDLIK VOSITALARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA O'TKAZISH JINOYATIGA QARSHI KURASHISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

¹Fayzullayev Dilshod Odilbekovich

² Mashrabov Muxammad Aziz Otabek o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20268244>

ARTICLE INFO

ABSTRACT

Received: 1st May 2026

Accepted: 5th May 2026

Published: 18th May 2026

KEYWORDS

jahon axborot tarmog'i, giyohvandlik (narkotik) vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari, konvensiya, jinoyat qonunchiligi.

Ushbu maqolada jahon internet tarmog'ida axborot texnologiyalari vositalari orqali sodir etilayotgan giyohvandlik vositalarini noqonuniy ravishda muomalasini amalga oshirish bilan bog'liq jinoyatlarni qanday sodir etilayotgani hamda unga qarshi kurashish borasidagi mulohazalar bayon qilinadi. Shu jumladan, internet tarmog'idan foydalanib giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda o'tkazish jinoyatiga qarshi kurashish bo'yicha takliflar bildiriladi.

Raqamli texnologiyalar va internet tarmog'ining jadal rivojlanib borishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biroq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng va ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning noqonuniy maqsadlarda qo'llanilishi ham ortib bermoqda. Xususan, jahon internet tarmog'i orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda realizatsiya qilish zamonaviy jinoyatchilikning xavfli va murakkab ko'rinishlaridan biriga aylandi.

Mazkur turdagi jinoyatlar an'anaviy savdo shakllaridan farqli ravishda anonimlik, tezkorlik va transmilliylik xususiyatlariga ega bo'lib, ularni aniqlash va fosh etish jarayoni murakkablashmoqda. O'zining jinoiy maqsadini amalga oshirish maqsadida birlashgan shaxslarning erkin realizatsiya qilinishi taqiqlangan mahsulotlarni ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali markazlashtirilmagan to'lov tizimlari orqali savdosini amalga oshirib huquqni muhofaza qiluvchi organlar nazoratini chetlab otishni maqsad qiladilar. Bu esa jinoyatchilikning yangi anonim shakllariga qarshi kurashishda mavjud huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, giyohvandlik vositalarining internet orqali tarqalishi, ayniqsa, axborot texnologiyalari vositalaridan ko'p foydalanuvchi keng qamrovli yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qiziqish, ularni xarid qilish hamda iste'mol qilib, unga moyillikning oshishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va barqarorlikka jiddiy tahdid paydo bo'lishiga va millat genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda³. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning yangidan-yangi, shu jumladan, kimyoviy (sintetik) "Dizayner" ko'rinishdagi turlarini paydo bo'lishi va

¹ ИИВ Академияси катта ўқитувчиси.

² ИИВ Академияси курсанти.

³ Файзуллаев, Д. О. (2024). Ёшлар орасида жиноятчиликка қарши курашиш давлатимизнинг долзарб вазифасидир!. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(1), 117-123.

muomalasining jadallashuvi jamiyat va iqtisodiyot uchun dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat davlat va jamiyat oldiga jinoyatlarning oldini olish, ularni barvaqt aniqlash hamda samarali huquqiy choralar ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda.

Shu jihatdan, an'anaviy giyohvandlik jinoyatlaridan farqli o'laroq, internet tarmog'idan foydalanib giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda o'tkazish jinoyatiga qarshi kurashish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, giyohvand moddalarni tibbiy maqsadlarda qo'llash og'riq va azob-uqubatlarni yengillashtirish uchun tibbiy va ilmiy maqsadlarda ham qo'llanilishini, biroq nazoratni kamaytirish yoki sustkashlikka yo'l qo'yish jiddiy xavfli oqibatlariga olib keladi. 2022-yilda 1 253 ta kuchli ta'sir qiluvchi va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib mazkur jinoyatlar 5,2 % ga oshgan, ya'ni 1 319 tani tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda ushbu asr vabosiga qarshi kurashishni samarali tashkil etmaslik, uni yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurashishimizda, avvalo, uni qayerdan kirib kelayotgani va qay usulda ommalashayotganini aniqlashimiz lozim.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni mamlakat hududiga noqonuniy kirib kelishi hamda realizatsiya qilinishini O'zbekiston Respublikasi misolida tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakat hududiga janubdan Afg'oniston va Tojikiston orqali tabiiy va sintetik, janubi-sharq va sharqdan Qirg'iziston orqali kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari, tabiiy va sintetik giyohvandlik vositalari, shimoliy-sharq va g'arbiy hududidan Qozog'iston orqali kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari, tabiiy va sintetik giyohvandlik vositalari noqonuniy yo'llar orqali kirib kelishi holatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanmoqda. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olib kirish, olib chiqish va tranzit tarzda o'tkazish deganda, ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qonunda belgilangan tartibni buzgan holda olib o'tish tushuniladi[1]. Bu O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56,56²,56⁴-moddalari [2], Jinoyat kodeksining 251¹, 270-276-moddalarining tegishli dispozitsiyalarini buzishga hamda javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi[3]. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 273-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, ularni turlicha usulda haq evaziga yoki tekinga (sotish, hadya etish, almashtirish, qarzi evaziga yoki qarz sifatida berish) boshqa shaxsga berish tushunilishi lozim. Bunda vositalar, moddalar, o'simliklar shaxs tomonidan bevosita yoki boshqa (masalan, ular saqlanadigan joy haqida xabar berish, shartlashilgan joyga qo'yib ketish) usulda amalga oshirilishi mumkin⁴[4]. Shuning bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi 1999-yil 19-avgustdagi Qonuni[5], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzda o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli Qarori[6], "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi Konvensiya (1971-yil 21-fevral, Vena)[7], "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona konvensiya (1961-yil, Vena)[8], Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya (1988-yil 20-dekabr, Vena) bilan belgilangan [9]. Mazkur Konvensiyalar O'zbekiston Respublikasida 1995-yil ratifikatsiya qilingan.

⁴ Файзуллаев, Д. О. (2024). ЁШЛАР ОРАСИДА ЭКСТРЕМИЗМ ВА РАДИКАЛИЗМНИ ТАРҚАЛИШНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ҚАРАТИЛГАН ЧОРА-ТАДБИРЛАРНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ!. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(1-2), 97-103.

Xorijiy davlatlar tajribasi va amaliyot ko'rsatib turibdiki, kontrabanda jinoyatini sodir etuvchi shaxslar o'zlarining jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tarzida, o'z harakatlarini puxta nikohlab, sodir qilish uslublarni mukammallashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda sodir etmoqdalar. Ayni paytda, ushbu sohadagi jinoyatlarni aniqlash va to'g'ri tavsiflash bo'yicha ma'lum bir kamchiliklar mavjudligi va ularni isloh etib, kerakli choralar ko'rish zarurligini taqozo etmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni mamlakat hududiga noqonuniy kirib kelish hamda realizatsiya qilish bilan bir qatorda bir guruh shaxslar har xil kimyoviy moddalar yordamida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tayyorlovchi laboratoriyalar tashkil etib, ularda qonunga xilof ravishda tayyorlangan kishining aqliy faoliyatiga hamda ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi preparatlarni tayyorlashmoqda. Tadqiqotlarimiz va o'rganishlarimiz natijasida qo'lbola usulda tayyorlanilayotgan hamda mamlakat hududiga noqonuniy ravishda kirib kelayotgan giyohvandlik vositalari asosan internet tarmog'i orqali savdo qilish holatlari avj olmoqda va ushbu jinoyatlarning sodir etilish sxemasi quyidagicha amalga oshirilmogda: jinoiy maqsad yo'lida birlashgan shaxslar ichida axborot texnologiyasi sohasida mutaxassislar mavjud bo'lib, ular turli xil narkotik savdosi uchun sayt hamda ijtimoiy tarmoqlarda bot ochib, ularda giyohvandlik vositalarining savdosini o'zining anonimligini saqlab qolgan holda amalga oshirmoqdalar; ushbu bot va saytdan ro'yxatdan o'tgan shaxslar xaridini kriptomablag'larni noqonuniy ayirboshlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan yuborilgan kriptohamyonlarga markazlashmagan to'lov tizimlardan to'lovni amalga oshirib, mahsulotni qayerga yetkazish kerak ekanligini belgilab, buyurtma qoldiradi; ushbu jinoyat uchun maxsus yollovchi shaxslar mavjud bo'lib, ular narkotik va psixotrop moddalarni turli joylarga yetkazib berish uchun moddiy taraflama qiyinchilikka uchragan shaxslarni tanlab olib ularga nisbatan oson bo'lgan usulda ko'proq pul topish mumkin bo'lgan yo'lni taklif etadi va ularning roziligini olish orqali o'zining jinoiy maqsadiga sherik qilib oladi; buyurtma qabul qilinganidan so'ng, mahsulotni yetkazib beruvchi shaxslar buyurtmani turli ovloq joylarga berkitib, qisqa muddat ichida iste'molchiga aloqaga chiqib, mahsulotning turgan joyini joylashuvini belgilagan holda ma'lumot beradi⁵, mavjud muammo shundaki, buyurtmani yetkazib beruvchi shaxslar ko'p holatlarda mahsulotni kimdan olgani to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmaydi; bularning eng yuqorisida esa sotuvchi mavjud bo'lib, u o'z oldiga kimyogar mutaxassisni, diler hamda buxgalterni yollab oladi, himoya va xavfsizlik maqsadida sport bilan chiniqqan yosh va navqiron sportchilarni o'ziga himoyachi qilib oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori 5-band, 28.04.2017 yildagi 12-son <https://lex.uz/docs/-3203265>;
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 01.04.1995 <https://lex.uz/docs/-97664>;
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 01.04.1995 <https://lex.uz/docs/-111453>;
4. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori 21-band, 28.04.2017 yildagi 12-son, <https://lex.uz/docs/-3203265>;

⁵ Файзуллаев, Д. О. (2025). ЯНГИ ТУРДАГИ ГИЁХВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИНИНГ ТУЗИЛИШИ, ТУРЛАРИ ВА КРИМИНОЛОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 4(5), 103-105.

5. O'zbekiston Respublikasining -"Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-86044>;
6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.11.2015 yildagi 330-son, <https://lex.uz/docs/-2815340>;
7. Psixotrop moddalar to'g'risida konvensiya : Birlashgan Millatlar Tashkiloti 21.02.1971, O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiyasi 23.09.1995 O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiyasi 23.09.1995, Vena, O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiyasi 10.10.1995, <https://lex.uz/docs/-2676169>;
8. Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona konvensiya : Birlashgan Millatlar Tashkiloti 30.03.1961, Vena, O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiyasi 23.09.1995, <https://lex.uz/ru/docs/-2673452>;
9. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya : Birlashgan Millatlar Tashkilotining 20.12.1988, Vena, O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiyasi 22.11.1995, <https://lex.uz/ru/docs/-2614780>;
10. Файзуллаев, Д. О. (2024). Ёшлар орасида жиноятчиликка қарши курашиш давлатимизнинг долзарб вазифасидир!. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(1), 117-123.
11. Файзуллаев, Д. О. (2024). ЁШЛАР ОРАСИДА ЭКСТРЕМИЗМ ВА РАДИКАЛИЗМНИ ТАРҚАЛИШНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ҚАРАТИЛГАН ЧОРА-ТАДБИРЛАРНИ КУЧАЙТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ!. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(1-2), 97-103.
12. Файзуллаев, Д. О. (2025). ЯНГИ ТУРДАГИ ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИНИНГ ТУЗИЛИШИ, ТУРЛАРИ ВА КРИМИНОЛОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 4(5), 103-105.